



## 1917-YILGI OKTABR TO'NTARISHI VA UNING TURKISTONGA TA'SIRI

Toshmurodova Sarvinoz quvondiq qizi<sup>1</sup>, Ergashev Ahmad

Abdug'afforovich<sup>2</sup>

<sup>1,2</sup>Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.5770485>

### MAQOLA TARIXI

Qabul qilindi: 01 -dekabr 2021  
Ma'qullandi: 05 - dekabr 2021  
Chop etildi: 10 - dekabr 2021

### KALIT SO'ZLAR

*bolsheviklar, men-sheviklar,*  
*«so'l» eserlar,*  
*KrayMyssovet, «Najot»*

### ANNOTATSIYA

*Ushbu maqolada Rossiya imperiyasida 1917-yil oktabr oyida bo'lgan davlat to'ntarishining Turkistonga qanday ta'sir qilgani, ziyolilarning bunday qulay fursatdan foydalanib mustaqil Turkiston muxtoriyatini tuzishga bo'lgan urinishlari haqida qisqacha bayon etilgan.*

Ma'lumki Rossiya imperiyasida 1917-yil oktabr oyida davlat to'ntarishi bo'ldi. Bunga sabab mamlakatda 2 ta hokimiyat — qo'sh hokimiyatchilik paydo bo'ldi: Davlat dumasi deputatlari Muvaqqat hukumat tuzdilar, shuningdek, ishchi, soldat, dehqon deputatlari Sovetlari tuzildi. Bunday hol 1917-yil oktabr oyi oxirlarigacha davom etdi. Muvaqqat hukumat demokratik erkinliklarni joriy etishni e'lon qildi. Biroq mamlakatdagi inqiroz shunchalik og'ir ediki, noroziliklar kuchayib bordi. Ayniqsa, urushni davom ettirish siyosati aholi g'azabini qo'zg'atdi.

1917-yil 25-oktabrda (yangi sana bilan 7-noyabr) bolsheviklar men-sheviklar va «so'l» eserlar bilan birga davlat to'ntarishini amalga oshirdilar va hokimiyatni qo'lga oldilar. Jahon urushi qiyinchiliklari, Rossiyadagi 1917-yil voqealari Turkiston, umuman, o'rta Osiyo xalqlari ha-yotiga jiddiy ta'sir ko'rsatdi.[1]

Toshkentda hokimiyatni egallashi. O'lkada yuz bergan oziq-ovqat tanqisligidan bolsheviklar foydalanib, 1917 -yil kuzida Sovetlar hokimiyatni qo'lga olishi masalasini ilgari surdilar. Ular ishchi va soldatlar boshdan kechirgan qiyinchiliklar, noroziliklarni o'z manfaatlariga qaratib bordilar. Bolsheviklarga boshqa so'l guruhlar, harbiy asirlar, frontdagi kommunistlar qo'shildilar. Oktabr oyining ikkinchi yarmida Toshkentda norozilik yig'ilishlari va mitinglar avj olib ketdi. Petrogradga qurolli to'ntarish ro'y bergani, Muvaqqat hukumat ag'darilgani, hokimr ni bolsheviklar qo'lga olgani to'g'risidagi xabar Toshkentga yetib keldi. Turkiston bolsheviklari rahbarlik qilgan Toshkent soveti ishchi va sol-datlarni qo'zg'olon ko'tarishga da'vat qildi. Lekin general Korovichenkoga sodiq qolgan qismlar bunga qarshi-lik ko'rsatdilar. 1917-yil 28-oktabrda Toshkentning yangi shaharida



qurolli to'qnashuvlar avj oldi. Qo'zg'olonchilar general qismlaridan ustun keldilar. 1-noyabrda Toshkent harbiy qal'asi taslim bo'ldi, shu kuni qurolli qo'zg'olon g'alaba qozondi, deb e'lon qilindi. Shunday qilib, 1917-yil kuzida o'lkadagi so'1-bolshevistik doiralar, ular tuzgan hukumat, bir tomondan kolonial-shovinistik, ikkinchi tomondan esa inqilobiy-sinfylik siyosati va bu boradagi amaliy ishlarni boshlab yubordi.[2]

1917-yil boshlarida Petrogradda bo'lib o'tgan voqealar ta'siri ostida Turkistonda yangi jamiyat kurtaklarini shakllantirish uchun harakat boshlanib ketdi. Turkiston ijtimoiy-siyosiy hayotida o'lka muxtoriyati masalasi asosiy masala bo'lib qoldi. Turkistonga muxtoriyat maqomini berish g'oyasi nafaqat demokratik ziyolilari orasida, hatto oddiy odamlar o'rtasida ham ancha ommalashgan edi. Jadidchilik 1917-yilda ma'rifatchilik harakatidan siyosiy harakat darajasiga allaqachon ko'tarilgan edi. o'sha 1917-yilning o'zida to'rt marta Butunturkiston mu-sulmonlari qurultoyi o'tkazildi. 1917-yil 16—23-aprelda Toshkentda bo'lgan I qurultoyda demokratik Rossiya tar-kibida Turkiston Muxtoriyatini tashkil etish g'oyasi olg'a surildi. Bu g'oya Turkiston xalqlarining o'z milliy davlatchiligini tildash yo'lidagi dastlabki qadami edi. Butunturkiston musulmonlar I qurultoyining so'nggi majlisida Markaziy rahbar organ — Turkiston o'lka musulmonlari kengashi (KrayMyssovet) tashkil etilishi haqida qaror qabul qilindi.[3] Uni tuzishdan asosiy maqsad milliy-ozodlik harakatiga tashkiliy va markazlashtirilgan xususiyat kasb etish uchun bir-biri bilan tarqoq aloqada bo'lgan jamiyat, qo'mita va ittifoqlarni birlashtirish edi. Turkiston musulmonlari Markaziy

Kengashiga Mustafo Cho'qayev rais, Zaki Validiy bosh kotib, Munavvar Qori, Behbudiy, CMahmudov, ILXo'jayev, T.Norbo'-tabekov, Islom Shoahmedov va boshqalar a'zo qilib saylandi. Munavvar Qori va Sadriddinxon afandi boshchiligida Toshkent qo'mitasi tuzildi. Shuningdek, Beh-budiy rahbarligida Samarqand va Nosirxon To'ra yetak-chiligida Farg'ona bo'limi ham tashkil topdi. Markaziy Sho'roning organi sifatida «Najot» (muharriri — Munavvar Qori), keyinchalik «Kengash» (muharriri — Validiy va Munavvar Qori) gazetalarini chiqarib boshladi. Shunday qilib, 1917-yil bahorida Turkistonning birli-gi va yaxlitligi tomon muhim qadam tashlandi. Tarixda ilk marta Butunturkiston miqyosida musulmonlar qurul-toyi chaqirilib, unda tub xalqlarning muxtoriyat tomon qat'iy intilishi, o'z an'analari, urf-odatlarini va turmush tarzini izchil turib himoya qilishi aytilgan. Bu manfaat-larning ifodachisi bo'lgan Milliy Markaz — Turkiston musulmonlari Markaziy Kengashi tashkil etildi. [4]

1917-yil 10-sentabrda Toshkentda Butunturkiston musulmonlarining II qurultoyi ochildi. «Sho'roi Islo-miya» tashabbusi bilan chaqirilgan ushbu qurultoy hokimiyatni ishchi, soldat va dehqon deputatlari So-vetlariga berishga qarshi chiqdi. Ushbu qurultoyda qabul qilingan rezolyutsiyalarda milliy demokratiya o'zi tutadi-gan yo'lning muhim asoslarini birinchi marta qat'iy qilib aytdi: hukumat demokratik siyosat yurgizadigan bo'lsa, ana shundagina musulmonlar bu hukumatda ishtirok etadilar. Ikkinchi qurultoyda faqat Milliy Markaz — Turkiston musulmonlari Markaziy Kengashi mintaqadagi tub yerli aholi manfaatlarini himoya qilishi mumkin, degan fikr qafiy



qilib qo'yildi. 1917-yil 17—20-sentabrda Toshkentda bo'lib o'tgan Turkiston va Qozog'iston musulmonlarining qurultoyi «ulamochilar» bilan «sho'roi islomchilar» o'rtasidagi uzoq va qizg'in bahslarga qaramay, nihoyat, kelishish va murosa yo'lini topdi. Qurultoyda «Sho'roi Islomiya»,

«Sho'roi Ulamo», «Turon» va boshqa siyosiy tashkilot-larni birlashtirish yo'li bilan butun Turkiston mintaqasi uchun umumiy bo'lgan «Ittifoqi musulmin degan siyosiy partiya tuzishga qaror qilindi. Qurultoy ishidagi asosiy masala Turkiston o'lkasining bo'lajak siyosiy tuzumini belgilash edi. [5]

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Алимова Д. ва бошқалар. История Узбекистана (1917–1991 гг.)
2. Революция в Средней Азии глазами мусульманских большевиков.
3. Аъзамхўжаев С. Туркистон мухторияти. Т.: Маънавият. – 2000.
1. 4 «Улуғ Туркистон» 1917 йил, 8 декабр, «Туркестанский вестник»,
4. Аъзамхўжаев С. Туркистон Мухторияти.